

LOTIN TILI EVOLYUTSIYASI: ARXAIK DAVRDAN POSTKLASSIK DAVRGACHA BO'LGAN BOSQICHLAR TAHLILI

Toshmirzayeva Asila, SamDTU, Davolash ishi fakulteti, 129-guruh talabasi

Abdurashidova Maftuna . SamDTU, Davolash ishi fakulteti, 129-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: SamDTU Tillar kafedrası assistenti Beknazarova M.K.

Annotatsiya: Ushbu maqolada lotin tilining miloddan avvalgi XII asrdan boshlab Uyg'onish davrigacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Tilning arxaik, klassik (oltin), postklassik (kumush) va o'rta asrlar davridagi fonetik va grammatik o'zgarishlari, shuningdek, Rim imperiyasining kengayishi natijasida yuzaga kelgan romanizatsiya jarayonlari yoritilgan. Maqolada lotin tilining xalqaro fan va tibbiyot terminologiyasi shakllanishidagi fundamental o'rni alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Lotin tili, arxaik davr, rotasizm, klassik lotin, romanizatsiya, Vulgata, Uyg'onish davri tibbiyoti, terminologiya.

ЭВОЛЮЦИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА: АНАЛИЗ ЭТАПОВ ОТ АРХАИЧЕСКОГО ДО ПОСТКЛАССИЧЕСКОГО ПЕРИОДА

Тошмирзаева Асила, Самаркандский государственный медицинский университет, лечебный факультет, студентка группы 129

Абдурашидова Мафтуна, Самаркандский государственный медицинский университет, лечебный факультет, студентка группы 129

Бекназарова М.К.

Научный руководитель: ассистент кафедры языков СамГМУ

Аннотация: В данной статье анализируются этапы развития латинского языка с XII века до н.э. до эпохи Возрождения. Освещены фонетические и грамматические изменения в архаический, классический (золотой), постклассический (серебряный) и средневековый периоды, а также процессы

романизации в результате расширения Римской империи. В статье особо подчеркивается фундаментальная роль латыни в формировании международной научной и медицинской терминологии.

Ключевые слова: Латинский язык, архаический период, ротацизм, классическая латынь, романизация, Вульгата, медицина Возрождения, терминология.

EVOLUTION OF THE LATIN LANGUAGE: ANALYSIS OF STAGES FROM THE ARCHAIC TO THE POST-CLASSICAL PERIOD

*Toshmirzayeva Asila, Samarkand State Medical University, Faculty of General
Medicine, student of group 129*

*Abdurashidova Maftuna, Samarkand State Medical University, Faculty of General
Medicine, student of group 129*

*Beknazarova M.K, Scientific supervisor: Assistant of the Department of
Languages, Samarkand State Medical University,*

Abstract: This article analyzes the stages of development of the Latin language from the 12th century BC to the Renaissance. Phonetic and grammatical changes in the archaic, classical (golden), post-classical (silver) and medieval periods, as well as the processes of Romanization as a result of the expansion of the Roman Empire, are highlighted. The article emphasizes the fundamental role of Latin in the formation of international scientific and medical terminology.

Keywords: Latin language, archaic period, rhotacism, classical Latin, Romanization, Vulgate, Renaissance medicine, terminology.

Lotin tili – antik madaniyat, huquq va zamonaviy tibbiyotning poydevori hisoblanadi. Garchi hozirda u "o‘lik til" sifatida tasniflansa-da, uning ilmiy qiymati va mantiqiy tuzilishi bugungi kunda ham jahon ilm-fani, xususan tibbiyot terminologiyasining asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Lotin tilining tarixiy

evolyutsiyasini o'rganish talabalarga terminlarning etimologiyasini tushunish va fanni chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi.

Lotin tilining shakllanishi va arxaik davr (mil. avv. xii – iii asrlar)

Lotin-falisk tilining umumiy proto-italik tilidan ajralib chiqishi mil. avv. XII asrlarga borib taqaladi. Dastlab Tiber daryosi quyi oqimidagi kichik Latsiy (Latium) mintaqasida shakllangan bu tilda lotin qabilalari so'zlashgan. Arxaik davrdagi eng muhim fonetik jarayon rotasizm (unlilar orasidagi "s"ning "r"ga o'tishi) bo'lib, u tilning morfologik qurilishini o'zgartirdi (masalan: mores > mores, ama-se > amare). Ushbu davrning qadimgi yodgorliklari sifatida "Lapis Niger" (Qora tosh) va "Prenezte fibulasi" kabi osori-atiqalarni ko'rsatish mumkin.

Klassik va postklassik davr: "oltin" va "kumush" lotin tili

Mil. avv. I asrda lotin tili Tsitseron va Sezar (nasrda), Virgiliy va Goratsiy (she'riyatda) ijodi orqali o'zining eng yuksak cho'qqisiga erishdi. Bu davrda til sintaktik uyg'unlik va me'yoriy barqarorlikka ega bo'ldi.

Rim imperiyasining kengayishi natijasida romanizatsiya jarayoni kuchaydi:

German qabilalari lotin tilidan kuchli ta'sirlandi va bu orqali lotincha o'zlashmalar (masalan, vinum, garit) protoslavyan tillariga ham o'tdi.

Postklassik (milodiy I-II asrlar) yoki "Kumush davr"da (Seneka, Tatsit, Apuley) uslubiy bezaklar ko'paysa-da, tilning grammatik asosi klassik me'yorlarda qoldi.

O'rta asrlar va ilm-fan tili sifatida saqlanib qolishi

III-VI asrlarda (Kechki lotin tili) xristian adabiyoti paydo bo'ldi. IV asrda Jerom Stridonskiy tomonidan Bibliyaning lotincha tarjimasi — "Vulgata" yaratilishi lotin tilining muqaddas tillardan biriga aylanishiga sabab bo'ldi.

Uyg'onish davrida (XVI asr) lotin tili tibbiyotning "Oltin davri"ni boshlab berdi. Andreas Vezaliy (Inson tanasining tuzilishi to'g'risida), Gabriel Fallopiy va Bartolomey Evstaxiy kabi buyuk anatomlar o'zlarining fundamental asarlarini lotin

tilida yaratdilar. Bu an'ana Nyuton, Spinoza va Lomonosov kabi olimlar tomonidan XVIII asrgacha davom ettirildi.

XULOSA

Lotin tilining arxaik qatlamlaridan boshlab klassik va keyingi davrlargacha bo'lgan rivojlanishi uning nafaqat adabiy, balki qat'iy ilmiy til sifatida shakllanishini ta'minladi. Zamonaviy tibbiyot nomenklaturasi (anatomik, klinik va farmatsevtik) aynan klassik lotin tilining barqaror grammatik va leksik bazasiga tayanadi. Shunday qilib, lotin tili tibbiyot olamining universal va muloqot tili bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1 Beknazarova M. K. The role of word-building elements in teaching the translation-free reading of medical texts //Archive of Conferences. – 2021. – T. 20. – №. 1. – С. 99-101.

2.Mahmudov Z. M. et al. Some Considerations about Legal Solutions and Practices of Certain Problems Writing Recipes //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – T. 25. – №. 4. – С. 5341-5352.

3.Beknazarova M. K. Lotin tilini o'qitish jarayonida klinik kafedralar bilan integratsiyalashtirilgan mashg'ulotlarning maqsadli yo'naltirilishidagi natijalar //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 11. – С. 653-656.

4.Beknazarova M. K. The most important criteria for evaluating student knowledge //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – С. 35-37.

5.Бабаева Д. Х., Бекнзарова М. К. О словообразовании в медицинской терминологии //Кронос: психология и педагогика. – 2019. – №. 1 (18). – С. 20-21.

6.D.J.Nishonova. INTEGRATION OF THE COURSE OF THE LATIN LANGUAGE COURSE WITH THE COURSE OF NORMAL ANATOMY //Web

of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 38-40.

7.Бекназарова М. К. МЕДИЦИНСКИЕ ТЕКСТЫ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ //The 5th International scientific and practical conference “World science: problems, prospects and innovations”(January 27-29, 2021) Perfect Publishing, Toronto, Canada. 2021. 1300 p. – 2021. – С. 1158.

8.Бекназарова М. К. и др. НАШЕ СЕРДЦЕ НАШЕ PERFECTUM MOBILE //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 11. – С. 170-173.

9.Бекназарова М. К. Antik Davr Adabiyoti Va Namoyondalari //Journal of Innovation in Educational and Social Research. – 2024. – Т. 2. – №. 10. – С. 43-45.

*